

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.F.01.05. RAQAMLI ILMIY KENGASHI**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ALIMATOVA NARGIS ABDUXALILOVNA**

**ZAMONAVIY O'ZBEKISTON IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA  
RAQOBAT MUHITI VA RAQOBATBARDOSHLIK DIALEKTIKASI**

**09.00.04-Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Contents of Doctor (DSc) Dissertation Abstract**

**Alimatova Nargis Abduxalilovna**

Zamonaviy O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida raqobat muhiti va raqobatbardoshlik dialektikasi.....

**Алиматова Наргис Абдухалиловна**

Диалектика конкурентной среды и конкурентоспособности в социально-экономическом развитии современного Узбекистана.....

**Alimatova Nargis Abdukhalilovna**

Dialectics of the competitive environment and competitiveness in the socio-economic development of modern Uzbekistan.....

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.F.01.05. RAQAMLI ILMIY KENGASHI**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ALIMATOVA NARGIS ABDUXALILOVNA**

**ZAMONAVIY O'ZBEKISTON IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA  
RAQOBAT MUHITI VA RAQOBATBARDOSHLIK DIALEKTIKASI**

**09.00.04-Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzui O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2022.2.DSc/Fal127 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasida (ik-falsafa.nuu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Muxtarov Azamat**

falsafa fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ramatov Jumaniyoz Sultonovich**

falsafa fanlari doktori, professor

**Yuldasheva Farida**

falsafa fanlari doktori, professor

**Choriyev Sanjar Anvarovich**

falsafa fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 30.12.2019.F.01.05. raqamli Ilmiy Kengashning 2025 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24; faks (99871) 246-53-21, (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz O‘zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 5-qavat, 511-xona).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yhatga olingan.) (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy.) Tel.: (99871)246-02-24; faks: (99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ da tarqatildi.

(2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**I.S.Saifnazarov**

ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi,

falsafa fanlari doktori, professor

**G.Shadimetova**

ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash

ilmiy kotibi, falsafa

doctori (PhD), dotsent

**O‘.G‘. Tilavov**

ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash qoshidagi

Ilmiy seminar raisi,

falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda qadimgi davrdan kishilar o'zaro yordam va hamkorlik munosabatlarida bo'lganlar. Biroq ular turli maqsadlarni ko'zlaganda o'z manfaatlarini qondirish yo'lida kurashishga to'g'ri kelgan. Zamonaviy dunyoda bu holat davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda ham kuzatiladi. XXI asr birinchi choragida globallashtirish ta'sirida yer yuzidagi davlatlar o'rtasidagi milliy chegaralar yuvilib, ular yagona raqobat muhiti ishtirokchilariga aylanib bormoqdalar. Ushbu muhitda o'z o'rniga ega bo'lish uchun mamlakatlar milliy raqobatbardoshlikni rivojlantirishi zarur. Ijtimoiy-iqtisodiy sohada raqobatbardoshlikni oshirish uchun esa raqobat muhitini yaratish muhim ahamiyat kasb etib, nusxalanishi qiyin bo'lgan raqobat ustunligini shakllantirish lozim bo'ladi. Raqobat muhiti va raqobatbardoshlikning dialektik aloqadorligi va taraqqiyoti qonuniyatlarini ijtimoiy-falsafiy nuqtai-nazardan tadqiq etish bu jarayonning mexanizmlarini aniqlashga yordam beradi. Raqobatning jamiyat uchun kognitiv-qadriyatli ahamiyati esa falsafiy asoslarga tayanadi.

Dunyoda AQSh, Xitoy, Yaponiya, Germaniya kabi rivojlangan davlatlar o'rtasida siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy sohalarda raqobat kurashi avj olmoqda. Ushbu mamlakatlar milliy raqobatbardoshlikni oshirish yolida turli strategiyalarni qo'llamoqdalar, innovatsion texnologiyalarni joriy etmoqdalar, eng ilg'or, iqtidorli mutaxassislarini jalb qilish uchun samarali immigratsion siyosat olib bormoqdalar. Rivojlangan mamlakatlarning ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida esa raqobat muhiti va raqobatbardoshlikning dialektik aloqadorligini tadqiq etish bo'yicha ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Shu boisdan rivojlanayotgan davlatlar ham bu borada o'z munosabatlarini aniqlab olishga majbur bo'lmoqda. Bu mamlakatlarning har biri bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlikni amalga oshirishga harakat qilinmoqda. Shuningdek, Markaziy Osiyodagi davlatlar orasida ham mintaqada o'ziga xos ilg'orlik uchun bellashuv ketmoqda.

Mamlakatimizda keyingi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekistonning jahon mamlakatlari bilan aloqalarini yanada kuchaytirdi. O'zbekistonning raqobatbardoshligi masalasi hozirgi davrda prinsipial ahamiyatga ega ekanligi alohida ta'kidlab kelinmoqda. Monopoliyaga qarshi kurashish va raqobatni rivojlantirish yo'nalishida mutlaqo yangi tizim yaratish zaruriyati yuzaga keldi. Oliy ta'lim tizimida raqobatni rivojlantirish yo'nalishi bo'yicha alohida fakultet, kunduzgi va sirtqi o'qish shaklini ochish, yangi fanlarni joriy qilish, ushbu maqsadlar uchun akademik soatlar ajratish bo'yicha ko'rsatma berildi. "Dunyo tajribasini o'rganib, o'z yo'limizni topishimiz zarur. Monopoliyadan chiqarish, raqobatni ta'minlash, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha yakdil yo'nalishimiz bo'lishi kerak"<sup>1</sup>. Shuning uchun

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 28 май куни иқтисодийда рақобат муҳитини таъминлаш ва истеъмолчилар ҳуқуқини ҳимоя қилиш борасидаги устувор вазифалар

O'zbekiston xalqaro raqobat muhiti subyekti sifatida o'z milliy raqobatbardoshligini oshirishi va ichki raqobat muhitini rivojlantirishi zaruratdir. Buning uchun esa raqobat muhiti va raqobatbardoshlikning o'zaro dialektik aloqadorligi qonuniyatlarini tadqiq etish lozim.

2020 yil 2 iyunda PF-6003-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida" farmoni, 2020 yil 7 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6019-son "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni chiqdi. Unga ko'ra "Raqobat to'g'risida"gi va "Tabiiy monopoliyalar to'g'risida"gi qonunlar birlashtirilib, 2023 yil 3 iyulda yangi O'RQ-850-son "Raqobat to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Shuningdek, "2022-2024 yillarda tovar va moliya bozorlarida raqobatni rivojlantirish strategiyasi" hamda 2023 yil 12 iyulda PF-158-son "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni ham e'lon qilindi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarda qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida mazkur dissertatsiya mavzusi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Ushbu dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.** Raqobat, raqobatbardoshlik va raqobat muhiti dialektik aloqadorligi muammolariga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari bir qator ilmiy markazlar va oily ta'lim muassasalarida, shu jumladan, AQSh Garvard biznes maktabida (Harvard Business School, HBS), Karnegi-Mellon universitetida (Carnegie Mellon University, CMU), Buyuk Britaniya Kembridj universiteti (University of Cambridge), Garvard huquq maktabida (Harvard Law School), Singapur milliy universitetida (National University of Singapore), Bangladesh Dakka universitetida (Dhaka University), MDH davlatlaridan Rossiyada Janubiy federal universitetida (Южный Федеральный университет, ЮФУ), Tinch okeani davlat universitetida (Тихоокеанский государственный университет), Rostov davlat universitetida (Ростовский государственный университет, РГУ), Qozog'istonda L.N.Gumilev

---

муҳокамасига бағишланган йиғилишдаги нутқи. <https://uza.uz/oz/politics/ra-obat-bozor-i-tisodiyetiga-atiy-tish-zharayenida-printsipi-28-05-2020>

<sup>2</sup> <https://www.hbs.edu/>; <https://www.cmu.edu/>; <https://www.cam.ac.uk/>; <https://hls.harvard.edu/>; <https://nus.edu.sg/>;  
<https://www.du.ac.bd/>; <https://sfedu.ru/>; <https://pnu.edu.ru/ru/>;  
[https://www.mathnet.ru/php/organisation.phtml?orgid=214&option\\_lang=rus&fletter=all](https://www.mathnet.ru/php/organisation.phtml?orgid=214&option_lang=rus&fletter=all;); <https://tsue.uz/>;  
<https://www.enu.kz/en/>.

nomli Yevroosiyo milliy universitetida (EHY), O'zbekistonda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida (TDIU) olib borilmoqda.

Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi raqobat muhiti va raqobatbardoshlik dialektik aloqadorligiga oid olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, shu jumladan quyidagi natijalar olingan: AQSh Garvard biznes maktabida (Harvard Business School, HBS) tadbirkorlikdagi raqobat hamkorligining o'ziga hos jihatlari aniqlangan, Karnegi-Mellon universitetida (Carnegie Mellon University, CMU) strategik menejment metodologiyasi va uslublari ishlab chiqilgan, Buyuk Britaniya Kembridj universitetida (University of Cambridge) raqobatbardoshlikda innovatsiyalarning ahamiyati ochib berilgan, Garvard huquq maktabida (Harvard Law School) biznes ekotizimlari va ularning xususiyatlari asoslab berilgan, Singapur milliy universitetida rivojlanayotgan davlatlarda raqobatbardoshlik strategiyasi masalasi tahlil qilingan (National University of Singapore), raqobatbardoshlikning bilimlar, adolat, estetika bilan bog'liqligi masalasi Bangladesh Dakka universitetida (Dhaka University) asoslangan. MDH davlatlaridan Rossiyada bozorlar raqobat muhitining raqobatbardoshlikka ta'siri Janubiy federal universitetida (Южный федеральный университет, ЮФУ) dalillangan, iqtisodiy tizimlar raqobatbardoshligining nazariy jihatlari Tinch okeani davlat universitetida (Тихоокеанский государственный университет, ТГУ) ochib berilgan, Rostov davlat universitetida (Ростовский государственный университет, РГУ) tadbirkorlikdagi raqobatning konstruktiv nazariyasi ishlab chiqilgan. Qozog'istonda L.N.Gumilev nomli Yevroosiyo milliy universitetida (ENU) mamlakatda raqobatni rivojlanishi va raqobat muhitini shakllanishi tendensiyalari aniqlangan, O'zbekistonda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida (TDIU) raqobat nazariyalari va raqobatbardoshlikning iqtisodiy jihatlari asoslab berilgan.

Dunyo miqyosida rivojlangan demokratik davlatlar tadqiqot markazlari va oily ta'lim muassasalarida ijtimoiy-iqtisodiy sohada raqobat muhiti va raqobatbardoshlikning dialektikasi bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda ustuvor tadqiqotlar olib borilmoqda: raqobatbardoshlikni boshqarishning menejment bilan bog'liq jihatlari, raqobat muhitidagi subyektlarning hamkorlik shakllari, raqobat muhitidagi subyektlarning xulq-atvori masalalari, raqobatbardoshlikni oshirish omillari, raqobatbardoshlikni samarali boshqarish muammolari, ilg'or strategiyalarni yaratish yo'nalishlari va usullari, raqobat jarayonidagi subyektlar benchmarkingi masalalari.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** "Raqobat", "raqobatbardoshlik", "raqobat muhiti" tushunchalari o'zaro dialektik aloqadorlikda bo'lib, adabiyotlar tahlili natijasida ushbu tushunchalarni, asosan, dastlab iqtisodiy maktablar vakillari tomonidan XVIII asrdan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy tafakkurda, xulq-atvor, iqtisodiy jarayon, munosabat sifatida tadqiq etilganligi ma'lum bo'ladi.

Qadimgi Hindistonning “Tipitaka”, “Nyaya-sutra”, “Atmabodxa”, Qadimgi Xitoyning “Dao de-szin”, Markaziy Osiyoning “Avesto” kabi falsafiy manbalarida raqobat insonlar orasidagi munosabatga xos xususiyat sifatida ta’riflanganini, Aristotel asarlarida dastlabki iqtisodiy talqinini, Abu Ali ibn Sino esa raqobatni salbiy ma’noda tushunganligini guvohi bo’lamiz.

Yangi davrda dastlabki iqtisodiy maktablar vakili Adam Smit, merkantilizm vakillari, David Yum, mumtoz siyosiy iqtisod yo’nalishi vakili U.Petti, D.Rikkardo, J.Styuart Mill va boshqalar tomonidan raqobatni bozor sharoitida shu muhit ishtirokchilari o’rtasida eng ko’p foyda olish uchun olib boriladigan bellashuv sifatida talqin qilinganligi va bu kurashning usullari tadqiq etilganligini ko’ramiz<sup>3</sup>.

XX-XXI asrda G’arb iqtisodchilaridan J.M.Keyns, A.Marshall, J.Robinson, M.Porter va boshqalar raqobatni iqtisodiy nuqtai-nazardan tadqiq etdilar va bu jarayonning tashkil etuvchilari, uning omillarini, A.Brandenburger va B.Neylbaff tadbirkorlikdagi raqobatda hamkorlik muammolarini o’rgandilar<sup>4</sup>.

Rossiyalik tadqiqotchilar Yu.B. Rubin tomonidan ta’lim sohasidagi raqobat masalalari, Yu.A.Yudanov esa iqtisodiyotda raqobat nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga hissa qo’shgan, Yu.V.Taranuxa raqobat va raqobatbardoshlik aloqadorligini o’rgangan<sup>5</sup>.

O’zbekistonlik tadqiqotchilardan faylasuf I.Saifnazarov raqobatning pragmatik jihatlari, Sh.Negmatova ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida soglom raqobatni rivojlantirishning ma’naviy, huquqiy va axloqiy jihatlari, Rustamov R.R. geopolitik raqobat sharoitida ma’naviy targ’ibot sistemasidagi atributiv o’zgarishlar, muammolar va yechimlar, A.A. Abduvaliev tomonidan global innovatsion indeksdagi raqobat muhiti va undagi O’zbekistonning ishtiroki masalalari, E.A.Xoshimov va L.O’Mingishov tomonidan mamlakatda to’laqonli raqobat muhitini shakllantirish ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning muhim omili sifatida o’rganilgan. S.Sh.

<sup>3</sup> Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов / А. Смит. – М.: Соцэкгиз, 1962. Смит А. Теория нравственных чувств. – М.: Республика, 1997. Петти, В. Экономические и статистические работы / В. Петти. – М.: Соцэкгиз, 1940. – (324 с.). Милль, Дж. С. Основания политической экономии с некоторыми применениями к общественной философии; пер. с последнего англ. изд. Остроградской Е. И.; под ред. О. И. Остроградского; Южно-Русское Книгоизд-во Ф. А. Иогансона. - Киев: Харьков: Тип. И. И. Чоколова, 1896. Милль Дж. Основы политической экономии. Т. 1. – М.: Прогресс. – 1980.

<sup>4</sup> Кейнс, Дж. М. Конец laissez-faire / Дж.М. Кейнс // Истоки. Вып. 3. М.: ГУ-ВШЭ, 2001. Кейнс, Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег / Дж. М. Кейнс. – М.: Прогресс, 1978. Маршалл, А. Принципы экономической науки / А. Маршалл.– М.: Прогресс, 1993. Робинсон Дж. Экономическая теория несовершенной конкуренции. – М.: Прогресс. – 1986. Портер М. Конкуренция.-М.: Вильямс, 2010. Портер М. Конкурентное преимущество: как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость: пер. с англ. Е. Калининой. М.: Альпина Паблишер, 2008. *Бранденбургер А., Нейлбафф Б.: Co-opetition. Конкурентное сотрудничество в бизнесе*; Редактор Немшилова Ю. А. М.: Издательство Кейс, 2012.

<sup>5</sup> Рубин Ю.Б. Теория и практика предпринимательской конкуренции: Учебник / Московский международный институт эконометрики, информатики, финансов и права. – М., 2003. Юданов А.Ю. Конкуренция: теория и практика: Учеб-практ. пособие / А. Ю. Юданов; Финансовая акад. при Правительстве РФ. - 3. изд., испр. и доп. - Москва: Гном и Д, 2001. Тарануха Ю.В. Конкуренция и конкурентоспособность. – М.: Русайнс, 2015.

Mirziyoeva O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini strategiyalash metodologiyasiga oid tadqiqotlar olib borgan. S.J.Tursunxo'jaev biznesni boshqarishda raqobat razvedkasining o'rnini tadqiq etgan. F.Abdusalyamov tadbirkorlik to'g'risidagi iqtisodiy qarashlarda raqobat va ishbilarmonlik muhitiga doir yondashuvlarni tahlil qilgan<sup>6</sup>.

Ammo ushbu kategoriyalarning tarixiy evolyutsiyasi, ularning ijtimoiy-falsafiy mohiyati, dialektikasi, aloqadorlik va taraqqiyot qonuniyatlari alohida maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining FA-0513 "Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, sud-huquq islohotlarining mushtarakligi" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarildi.

**Tadqiqotning maqsadi** raqobat muhiti va raqobatbardoshlikning dialektik aloqadorligi hamda taraqqiyot qonuniyatlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida namoyon bo'lishini ilmiy asoslashdan iborat.

#### **Tadqiqot vazifalari:**

ijtimoiy-falsafiy kategoriyalar sifatida "raqobat", "raqobat muhiti" va "raqobatbardoshlik" mazmunining tarixiy rivojlanishini, evolyutsiyasini tadqiq etib, mavjud qonuniyatlarni aniqlash;

raqobatbardoshlik va raqobat muhitining sabab-oqibat, imkoniyat va voqelik, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, inkorni-inkor, miqdor va sifat biriligidagi ifodalanuvchi dialektik o'zaro bog'liqligini o'rganish;

raqobatbardoshlikning obyektiv va subyektiv omillarini, raqobatbardoshlikni oshirish usullarini, oliy ta'lim tizimida sifatli ta'limga erishish, aholi farovonligini oshirish orqali O'zbekistonning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlarini tahlil qilish;

yangilanayotgan O'zbekistonda raqobatbardoshlik omillari, raqobat muhitini rivojlantirish tendensiyalarini tadqiq etish va amaliy takliflar ishlab chiqish.

---

<sup>6</sup>Негматова Ш.Ш. Ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиёти шароитида соғлом рақобатни ривожлантиришнинг маънавий, ахлоқий ва ҳуқуқий жиҳатлари. Фалсафа фанлари доктори диссертацияси (DSc) автореферати. Самарқанд, Академия ноширлик маркази, 2018. Saifnazarov I, Pragmatizm Yangi O'zbekiston taraqqiyotining falsafasi sifatida. T.: Oltin qalam nashriyoti, 2023. Rustomov P.P. Геополитик рақобат шароитида маънавий тарғибот системасидаги атрибутив ўзгаришлар, муаммолар ва ечимлар фалсафа фан. фалсафа доктори дис.: 09.00.04. Самарқанд, 2019. Абдувалиев А.А. Глобал инновацион индексдаги рақобат ва унда Ўзбекистоннинг иштироки//Илм-фан ва инновацион ривожланиш, 2022. №1. – Б.17-27. Hoshimov EA, Mingishov L.O. Formation of a competitive environment in the country is a key factor of modernization of production // Scientific electronic journal "Economy and Innovative Technologies". No.1, January February, 2015. Мирзиёева С. Ш. Методологические основы стратегирования социально-экономического развития Узбекистана. СПб.: ИПЦ СЗИУ РАНХиГС, 2020. Турсунхўжаев С.Ж. Бизнесни бошқаришда рақобат разведкасининг ўрни//Иқтисодиёт ва таълим, 2022. - №3. –Б.30-35. Абдусаломов Ф. Тadbirkorlik tўғрисидаги иқтисодий қарашларда рақобат ва ишбилармонлик муҳитига доир ёндашувлар//Жамият ва бошқарув, 2021. - №4. –Б.82-90.

**Tadqiqot obyekti** zamonaviy O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi raqobat muhiti va raqobatbardoshlik dialektikasi tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** "raqobat muhiti" va "raqobatbardoshlik" falsafiy kategoriyalari o'zaro dialektikasi, aloqadorligi va bog'liqligi qonuniyatlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertasiyada tarixiylik va mantiqiylik birligi, qiyosiy tahlil, mavhumlashtirish, analiz va sintez, deduksiya, induksiya, sotsiologik so'rovnoma kabi usullardan foydalanildi.

**Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi:**

"Raqobat", "raqobat muhiti" va "raqobatbardoshlik" kategoriyalarining falsafiy tushunchalar sifatidagi tarixiy evolyutsiyasi mantig'i, jamiyatning hayot faoliyati uchun raqobatning kognitiv-qadriyatli ahamiyati asoslab berildi;

"raqobat muhiti" va "raqobatbardoshlik" kategoriyalari to'g'risidagi zamonaviy konsepsiyalar ijtimoiy-falsafiy nuqtai-nazardan tahlil etilib, o'zaro qiyoslandi, ushbu tushunchalarning dialektik aloqadorlik hamda taraqqiyot qonuniyatlari dalillandi;

"raqobat muhiti" va "raqobatbardoshlik" kategoriyalarining liderlik orqali strategiyani yaratish jarayonlari bilan bog'liqligi, raqobat muhitida optimal strategiyani yaratish hamda ichki va tashqi muhitda rahbarlikni amalga oshirish raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilishi, raqobat imperativlari yordamida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy konsolidatsiyasi hamda uyg'unlashuvi ta'minlanishi asoslandi;

"kambag'allik" tushunchasi ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etilib, ko'p mezonli kambag'allik ko'rsatkichlari, kambag'allikni qisqartirish milliy raqobatbardoshlik omili ekanligi, kambag'allikni qisqartirish milliy modelini yaratish lozimligi deprivatsion metodga ko'ra asoslandi;

oily ta'lim muassasasi raqobatbardoshligi ichki va tashqi raqobat muhitidagi determinatsion omillari hamda ta'lim sifati bosh omil sifatida asoslandi, yangilanayotgan O'zbekistonda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, raqobatbardoshlikni oshirish omillarini rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi.

**Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:**

"Raqobat", "raqobat muhiti" hamda "raqobatbardoshlik" kategoriyalarining ijtimoiy-falsafiy tushunchalar sifatidagi turli tarixiy davrlardagi evolyutsiyasi to'g'risida bilimlar hosil qilindi hamda Falsafa fanidan yaratilgan darslik mazmuniga kiritilgan.

Yangilanayotgan O'zbekistonda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va raqobatbardoshlikni oshirish omillariga doir amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar

hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan monografiya va u haqidagi taqriz, xulosalarda ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotda tatbiq etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati** dissertatsiyada ilgari surilgan g'oyalar va nazariy xulosalardan ijtimoiy falsafa hamda raqobat muhiti va raqobatbardoshlik mavzusiga oid o'tkaziladigan tadqiqotlar hamda metodologik yondashuvlarni takomillashtirishda ilmiy-uslubiy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, amaliy ahamiyati shundan iboratki, raqobat muhitida qanday strategiyani tanlash va raqobat xulq-atvorining qaysi biri ma'qulroqligini aniqlashda xulosalar raqobat muhitidagi tadbirkorlik tuzilmalariga raqobatbardoshlikni oshirish uchun uslubiy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, raqobatga bag'ishlangan o'quv kurslari uchun material sifatida foydalaniladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Zamonaviy O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida raqobat muhiti va raqobatbardoshlik dialektikasini tadqiq etish asosida:

“raqobat”, “raqobat muhiti” va “raqobatbardoshlik” kategoriyalarining falsafiy tushunchalar sifatidagi tarixiy evolyutsiyasi mantig'i, jamiyatning hayot faoliyati uchun raqobatning kognitiv-qadriyatiy ahamiyatiga oid xulosalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023 yil uchun chora-tadbirlar dasturining II yo'nalishida belgilangan “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi mazmun-mohiyati hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar targ'iboti 9-bandi “Yangi O'zbekiston-xalqparvar davlat” tamoyilini ro'yobga chiqarishga qaratilgan islohotlar mazmun-mohiyatini targ'ib qilish borasidagi ustuvor vazifalar” mavzusidagi targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023 yil 05 dekabrda 02-22/1359-sonli dalolatnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida raqobatbardoshlik omillari, raqobat muhitini rivojlantirish tendensiyalarini tadqiq etish bo'yicha o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy sohadagi tadbirlarini amalga oshirishda targ'ibotchilar uchun uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishga asos bo'lib xizmat qilgan.

“Raqobat muhiti” va “raqobatbardoshlik” kategoriyalari to'g'risidagi zamonaviy konsepsiyalar ijtimoiy-falsafiy nuqtai-nazardan tahlil qilish natijalari, o'zaro qiyoslanishi va ushbu tushunchalarning dialektik aloqadorlik va taraqqiyot qonuniyatlariga oid xulosalardan O'zbekiston Adolat sotsial-demokratik partiyasi dasturining «Aqlli iqtisodiyot-mamlakat jadal taraqqiyotining garovi» qismida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Adolat sotsial-demokratik partiyasi Siyosiy kengashining 2024 yil 12 yanvardagi 01-04/28-sonli dalolatnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar Yangilanayotgan O'zbekistonda halol va sog'lom raqobat muhitini yaratish hamda milliy raqobatbardoshlikni oshirishga oid aholi bilan

targ'ibot faoliyati olib borayotgan partiya a'zolarining targ'ibot-tashviqot ishlarining natijadorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

“Raqobat muhiti” va “raqobatbardoshlik” kategoriyalarining liderlik orqali strategiyani yaratish jarayonlari bilan bog'liqligi va raqobat muhitida optimal strategiyani yaratish hamda ichki va tashqi muhitda rahbarlikni amalga oshirish raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilishi, raqobat imperativlari yordamida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy konsolidatsiyasi va uyg'unlashuvi ta'minlanishiga oid xulosalardan Yoshlar ishlari Agentligi tomonidan tashkil etilgan ijtimoiy loyihalarni amalga oshirilishida foydalanilgan. (Yoshlar ishlari agentligining 2024 yil 11 dekabr 2-15-21-6602-sonli dalolatnomasi). Natijada, Yoshlar ishlari Agentligi o'tkazgan ijtimoiy loyihalar samaradorligi oshgan.

Dissertatsiyaning «raqobat muhiti» va «raqobatbardoshlik» kategoriyalarining liderlik va strategiyani yaratish jarayonlari bilan aloqadorligi va raqobat muhitida optimal strategiyani yaratish hamda ichki va tashqi muhitda rahbarlikni amalga oshirish raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilishi to'g'risidagi xulosalaridan; kambag'allik ijtimoiy-falsafiy fenomen ekanligi, ko'p mezonli kambag'allik ko'rsatkichlari, kambag'allikni qisqartirish milliy raqobatbardoshlik omili ekanligi va kambag'allikni qisqartirish milliy modelini yaratish lozim ekanligi to'g'risidagi xulosalardan Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati-O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O'zLiDeP)ning dasturida belgilangan to'rtinchi maqsadni amalga oshirishda foydalanilgan (O'zLiDeP Siyosiy kengashining 2023 yil 15 dekabrda 01-27/403-sonli dalolatnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va Yangilanayotgan O'zbekistonda aholining kam ta'minlangan aholisining ijtimoiy himoyasini ta'minlash, halol va sog'lom raqobat muhitini yaratish hamda milliy raqobatbardoshlikni oshirishga oid ilmiy xulosalar partiya a'zolarining aholi o'rtasida olib borilgan targ'ibot-tashviqot ishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Oily ta'lim muassasasi raqobatbardoshligi ichki va tashqi raqobat muhitidagi determinatsion omillari hamda ta'lim sifati bosh omil sifatida asoslanishi hamda yangilanayotgan O'zbekistonda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va raqobatbardoshlikni oshirish omillarini rivojlantirishga oid xulosalardan 2022-2023 yillarda «Toshkent» telekanali orqali efirga uzatilgan ko'rsatuvlarining ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga bag'ishlangan ayrim sonlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan. (O'zMTRK “Toshkent” tele-radio kanalining 2023 yil 14 dekabrda 02-15-143-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur ilmiy xulosalarning keng xalq ommasi ongida aks etishi oliy ta'lim tizimidagi raqobat muhiti va oliy o'quv yurtlarining raqobatbardoshlik omillariga tegishli vazifalar ijrosini ta'minlashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta anjumanda, jumladan 8 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanda muhokama qilinib, sinovdan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 33 ta ilmiy ish, ulardan O'zbekiston Respublikasi OAK tomonidan tasdiqlangan ro'yhatga kiruvchi ilmiy jurnallarda 13 ta ilmiy maqola, xorijiy

jurnallarda 3ta ilmiy, respublika hamda xalqaro miqyosda o'tkazilgan ilmiy anjumanlar to'plamlarida maqolalar va bitta monografiya chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 217 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYA<sup>a</sup>NING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning «Kirish» qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, obykti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqotning amaliyotga joriy etilganligi, aprobatyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Raqobat mazmunining evolyutsion taraqqiyoti”** deb ataladi. Ushbu bobda Sharq va G'arb falsafasida eng qadimgi davrlardan boshlab to hozirgi davrgacha bo'lgan “raqobat” tushunchasining tarixiy evolyutsiyasi o'rganilgan. Qadimgi yozma manbalarni hamda keyingi davrlardagi faylasuflarning asarlarini o'rganish jarayonida raqobatga nisbatan uch xil munosabat bo'lganligi aniqlandi.

Tadqiqot birinchi bobining **“Sharq va G'arb falsafasida raqobatning insoniy munosabat sifatidagi talqini”** deb nomlangan birinchi paragrafida insoniyat tarixida raqobatga nisbatan yondashuvlar tasniflangan. Unga ko'ra, uch xil fikrni ajratib ko'rsatish mumkin. Fikrning birinchi yo'nalishiga ko'ra, hayotga mavjudlik uchun kurash sifatida, insoniy munosabatlarga hokimiyat, sharaf va lazzatlanish uchun bellashuv sifatida qarashdir. Masalan, Geraklitning fikricha, urush-umum qabul qilingan, dushmanlik-oddiy hol, hamma narsa unga ko'ra paydo bo'ladi. Qadimgi Yunon miflari hudolarning va insonlarning bir-biriga nisbatan dushmanligi va ayyorligi sahnalariga to'la. Qadimgi Xindiston falsafiy tizimlaridan Buddaviylikning muqaddas kitobi bo'lgan “Tipitaka”da raqobat insonlar o'rtasidagi kurash, Nyaya falsafasi g'oyalarini aks ettirgan “Nyaya sutra”da falsafiy mushohada yuritishning elementi, Vedanta falsafasi kitobi “Atmabodxa”da Atmanning ikki qismi bo'lgan borliq va fikr o'rtasidagi munosabat sifatida talqin etilgan. Qadimgi Xitoy Daosizm falsafasi kitobi “Dao de-szin”da adovat, raqobat oxir-oqibatda urushga olib borishi mumkinligi, xitoylik Sun-szining asarlarida odamning hissiyotlarga bo'ysunib yashashi raqobatni keltirib chiqarishi yoritilgan.

Qadimgi Yunoniston falsafasi vakili Epikur asarlarida raqobat uchun sabab bo'ladigan ma'lumotlarni oshkor etmaslik, muvaffaqiyatga erishish uchun turli insonlar o'rtasida vujudga keladigan salbiy munosabatlardan ustun turish, yutuqlar sari intilish kerakligi aytib o'tilgan. Aristotel o'zining “Politika” asarida kimdir

qandaydir monopoliyani yarata bilsa, mulk orttirish nuqtai-nazaridan foydali ekanligini ta'kidlagan.

Markaziy Osiyo fasafasidagi eng qadimgi yozma manbalardan biri bo'lgan "Avesto"da ham raqobatga doir bitiklarni ko'rish mumkin. Hudolar Axuramazda va Axriman, aka-uka bo'lishiga qaramasdan, ular o'rtasidagi kurash bu dunyodagi ustunlik, odamlar ustidan hukmron bo'lish kabi maqsadlar uchun olib borilgan. Bu esa, raqobat munosabatlari qadimdan insoniyatga xos ekanligidan dalolat beradi.

Abu Ali ibn Sino o'zining ijtimoiy-falsafiy qarashlarida jamiyatdagi notenglikka tabiiy hodisa sifatida qarab, agar jamiyatda hamma boy bo'lgan holatda u raqobat va hasadga asoslangan ziddiyatlardan vayron bo'lgan bo'lardi, deb xulosa chiqaradi. Ahmad Yassaviy esa bu dunyodagi hokimiyat, boyluk uchun bo'ladigan kurashdan voz kechib, butun diqqatni, vujudni ollohga bo'lgan muhabbatga qaratish lozimligini ta'kidlaydi.

O'rta asrlar Yevropa falsafasida iqtisodiy jabhada raqobat feodallar orasidagi munosabat sifatida talqin qilinadi.

Nazariya va amaliyotning ikkinchi va bugungi kunda eng ko'p tarqalgan yo'nalishi "sog'lom" raqobat to'g'risidagi ta'limotdir. Unga ko'ra, iqtisodiy munosabatlarda yolg'on, maqsadli o'zgaga ziyon yetkazish, bozorlar monopollashuvi bo'lmasligi kerak. Munosabatlarni tartibga keltiruvchi asosiy vosita-davlat va o'z-o'zini boshqaruvchi nodavlat tashkilotlari. Raqobat bunday holatda urush emas, balki ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'z foydasiga ega bo'ladigan musobaqaga o'xshash holatdir. Rivojlanishning yetakchi omili-ilmiy-texnik taraqqiyot va inson kapitali-bilimlar, malakalar, qobiliyatlar hisoblanadi. Bunday yo'nalishning birinchi va bosh himoyachisi Adam Smitning fikricha, raqobat sifatni yaxshilaydi, foydani tenglashtiradi va baholarni optimallashtiradi. Bunday qarash mukammal raqobatning modeli sifatida ko'riladi. Ammo vaqt bunday modelning kamchiliklarini ko'rsatib berdi va tez orada monopolistik, mukammal bo'lmagan va h.k. raqobat shakllari to'g'risidagi nazariyalar paydo bo'ldi. Bunday paradigmani eng katta kamchiligi-uning hayotga tatbiq etishning juda qiyinligi, iqtisodiy agentlar xulq-atvorini normativ tartibga keltirishning murakkabligi hisoblanadi.

Yangi davrda, falsafaning bag'ridan turli fanlarning, shu jumladan, iqtisodiyotning ajralib chiqishi bilan raqobatning ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha sifatidagi ta'riflari vujudga keldi. XVI-XVII asrlarda merkantilizm maktabi vakili T.Men raqobat va monopoliya sharoitida narxlarning shakllanishi, narxga bog'liq raqobat metodlarini ishlab chiqdi.

Nihoyat, raqobat to'g'risidagi fikrlarning uchinchi yo'nalishi unchalik ommalashgan emas, lekin kelajakda muhim o'ringa ega bo'lib, chuqurroq ko'rib chiqishga loyiq. Bunday qarashning mohiyatida odamlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish foydaliligini inkor etish hamda ochiqlik, hamkorlik, hatto qurbon

bo'lish tamoyillari asosida xo'jalik tizimini samarali qurishga ishonch yotadi. Bunday "do'stona" yondashuv to'g'risida faylasuflar qadimdan orzu qilganlar. Hamkorlik g'oyalari axloqiy jihatdan shuning uchun ham afzalki, xo'jalik yuritishning dastlabki shartlari individuumlar uchun qanchalik bir xil bo'lmasa turli xalqlar uchun tabiiy iqlimiy o'ziga xosliklar sabab ham o'zgacha. Hozirgi zamon fanida Adam Brandenburger va Barri Neylbaff "raqobat hamkorligi" konsepsiyasini taklif etishmoqda, ya'ni mahsulotni birgalikda yaratish va oxirida mehnat natijasini o'rtada taqsimlash. Zamonaviy xo'jalikda hamkorlikning omadli namunasi sifatida iqtisodiy klasterlar, texnoparklar, xalqaro standartlar tizimi, ilmiy-tadqiqot jamoalari, jamoaviy moliyalash (kraundfanding), resurslardan jamoaviy foydalanish (kraudsorsing) va h.k. vujudga keldi. Shunday qilib, bashariyat ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixi raqobat tabiatini tushunishda insonlar o'rtasidagi kundalik va xo'jalik munosabatlari shu asosda quriladigan turli yondashuvlarni namoyon qiladi.

Dissertatsiya 1-bobining 2-paragrafi "**Ijtimoiy-iqtisodiy tafakkur rivojida raqobat tushunchasi transformatsiyalashuvi**" deb nomlangan. Unda Yangi davrdan boshlab raqobat va uni tashkil etuvchilari to'g'risida ijtimoiy-iqtisodiy tafakkur doirasida turli nazariyalar paydo bo'lganligi va bu nazariyalarning o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Jumladan, XVIII asrda faylasuf D.Yum rivojlangan tashqi savdoni faqat rivojlangan ishlab chiqarish mavjud bo'lgan holdagina, davlatga raqobatda ustunlik beruvchi unsur deb qaraydi. Mumtoz iqtisodiyot fani vakillari U.Petti, A.Smit, D.Rikkardo raqobat nazariyasining asosiy qoidalarini shakllantirdi. Shu bilan birga raqobat munosabatlariga bo'lgan nazariy qarashlar evolyutsiyasidagi kuchli sakrash marksistik siyosiy iqtisodning vujudga kelishi va taraqqiyoti bilan bog'liqdir.

Raqobat nazariyasining neoklassik yo'nalishi raqobatni mavhum-mantiqiy, formallashtirilgan yondashuvga tayanib va matematik instrumentariyni keng qo'llab, u namoyon bo'lishining aniq tarixiy shart-sharoitlaridan ajratilgan holda, bozor mexanizmi elementlaridan biri, deb tavsiflaydi. Raqobat to'g'risidagi neoklassik paradigma uchun an'anaviy bo'lgan ushbu tasavvur A.Marshall (1844-1924 yy.), L.Valras (1834-1910 yy.) g'oyalariga asoslanadi. J.Robinson (1903-1983 y.y.) va E.Chemberlin mukammal bo'lmagan monopolistik konkurensiya nazariyasini shakllantirdi. J.Robinson "mukammal raqobat-monopoliya" dixotomiyasidan kelib chiqib, mukammal raqobatni bozorning tabiiy holati, deb qaraydi. E.Chemberlin esa bir vaqtning o'zida bozorda mukammal raqobat va monopoliya elementlari mavjudligini bozor uchun normal holat, deb hisoblaydi. XX asr oxiri XXI asr boshlarida neoklassik paradigmanning iqtisod fanidagi zamonaviy yetakchi namoyandasi amerikalik iqtisodchi M. Porter raqobatni rivojlangan davlatlardagi iqtisodiy o'sishning yetakchi omili deb qarasa-da, lekin o'z asarlarida "raqobat" tushunchasining mohiyatini ochib bera olmagan. Uning

o'rniga "raqobatbardoshlik" va "raqobatlashuvchi kuchlar" kategoriyalariga o'z diqqatini qaratgan.

Shunday qilib, ijtimoiy-iqtisodiy tafakkur metodologik instrumentariysi kengayib va funkcionallashib borgan sari, murakkablashib boruvchi raqobat munosabatlari bilan yonma-yon borib, uning mohiyati va o'ziga xos tomonlarini yoritib bordi. Shu bilan birga, ilg'or iqtisodiy maktablar ilgari surgan raqobat talqinlarining hech biri kamchiliklar, bo'shliqlardan holi emas va bu talqinlarning ko'proq yoki kamroq, ya'ni tor doirada ekanligini ko'rsatadi.

Dissertatsiya 1-bobining 3-paragrafi **"Raqobatga doir ilmiy qarashlarni davriylashtirish muammosi"** deya nomlanib, unda raqobat to'g'risidagi nazariyalar rivojidadagi davrlar ajratilgan. Unga ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy tafakkurda raqobatga oid qarashlarni shartli ravishda to'rtta davrga bo'lish mumkin:

-raqobat nazariyasi rivojlanishidagi arxaik davr-qadimgi yozma falsafiy manbalarda raqobatning insoniy munosabat sifatida tushunilishi (mil.ol. ikkinchi mingyillik o'rtalaridan XVII asrgacha);

-raqobat nazariyasi rivojlanishidagi "mumtoz" davr-mukammal raqobat ideal modelidan raqobatni davlat tomonidan tartibga solinishi zarurligi to'g'risidagi birinchi asoslashga qadar (XVIII asr-XX asrning birinchi yarmi);

-strategik menejment konsepsiyasining vujudga kelishi (I.Ansoff) va uning doirasida raqobatbardoshlikni boshqarish bosqichi;

-"eng yangi" bosqich-raqobat kurashida innovatsiyalardan foydalanishning murakkabroq modellaridan foydalanish (boshqalardan maksimal "farq qilish"), raqobatni tizimlarning boshqa darajasiga chiqishi (tovarni yaratishning butun zanjiri bo'yicha raqobat, raqobatchilar bilan kooperatsiya, klasterlarning tashkil bo'lishi, davlatning "yumshoq" sanoat siyosati).

Bob yakunida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. "Raqobat" tushunchasi uch xil aspektida tushuniladi. Birinchisi, jarayon sifatida, ya'ni bozor muhitida uning ishtirokchilari bellashuv faoliyatini amalga oshiradilar. Bozorda eng yaxshi sharoitlarga ega bo'lish uchun o'z faoliyati samaradorligini boshqarib, raqobatchilarning holatini o'rganadilar, o'z mahsulotlarining jozibadorligi darajasini ko'taradilar. Ikkinchidan, raqobatni munosabat sifatida tushuniladi, ya'ni bu munosabat kamida ikki ishtirokchi o'rtasida ro'y beradi. Raqobatchilar ozining eng yaxshi tomonlarini namoyon qilib, bir-biridan qaysi bir sohada o'zishga harakat qiladilar. Uchinchidan, raqobat xulq-atvor sifatida tushuniladi, ya'ni bunda raqobatchilar eng yaxshi natijalarga erishish yo'lida axloqiy va axloqiy bo'lmagan vositalardan foydalanishlari mumkin.

2. Tadqiqot davomida o'rganilgan yozma manbalardan "raqobat" tushunchasining jamiyatda falsafiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy tafakkurdagi evolyutsiyasining mantig'ini keltirish mumkin. Dastlab, qadimgi dunyo va o'rta asrlarda asosan, raqobat bu insonlarning bir-biriga munosabatlarda namoyon bo'luvchi hayotdagi eng yaxshi sharoitlar, imkoniyatlarga ega bo'lishga intilish sifatida tushunilgan.

Uyg'onish davri oxiri va Yangi davrga kelib, sanoat rivojlanib, falsafadan fanlarning ajralib chiqishi ro'y berishi bilan dastlabki iqtisodiy ta'limotlar paydo bo'ldi. Ana shu iqtisodiy ta'limotlar tomonidan raqobatning dastlabki iqtisodiy talqinlari vujudga keldi. Raqobat bozor ishtirokchilarining turli iqtisodiy vositalarni qo'llash orqali eng ko'p daromad olishga intilishi sifatida namoyon bo'ldi. Raqobatchini bozordan siqib chiqarish, uni tanazzulga yuz tutishiga olib kelish, "nosog'lom" raqobat usullarini qo'llash kabi holatlar mavjud bo'lgan. XX asr 90-yillar oxiridan esa raqobatga yangicha qarashlar shakllana boshladi.

3. Raqobat jarayoni XVIII asrdan boshlab ilk iqtisodiy maktablar: klassik iqtisod maktabi, siyosiy iqtisod maktabi, institutsionalizm vakillari asarlarida iqtisodiy tushuncha sifatida o'rganildi. Uning ilmiy ta'riflari, tasniflari vujudga keldi.

4. XXI asrda raqobat yangi ko'rinish oldi, ya'ni raqobatchilarning yagona qadriyatlar zanjirini hosil qilish yo'lida kooperatsiyasi vujudga keldi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Raqobat muhiti va raqobatbardoshlik dialektik aloqadorligi qonuniyatlari"** deb ataladi. Ushbu bobda raqobatbardoshlik tushunchasining ta'riflanishi, uning ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi darajalari hamda raqobatbardoshlik va raqobat muhiti o'rtasidagi dialektik aloqadorliklar, sabab-oqibat bog'lanishlari tahlil qilingan.

**"Raqobatbardoshlik" tushunchasi va uning darajalari** deb nomlangan dissertatsiya ikkinchi bobi 1-paragrafida "raqobatbardoshlik" to'g'risidagi turli qarashlar tadqiq etilib, uning ta'rifi keltirilgan.

Ko'p tadqiqotchilar raqobatning umumqabul qilingan ta'rifi mavjud bo'lmaganligi sababli, raqobatbardoshlikni shakllantirish va baholashga ham yagona yondashuv mavjud emas, deb hisoblaydilar.<sup>7</sup>

F.Kotler, R.Fatxutdinov, M.Porter raqobatbardoshlikni xususiyat deb qaraydilar. T.G.Filosofova, M.Meskon raqobatbardoshlikni qobiliyat deb tushunadilar. Shunday qilib, M.Porter raqobatbardoshlikni bozor subyekti, tovar, xizmatning bozor munosabatlarining mavjud boshqa subyektlari, o'xshash tovarlar va xizmatlar bilan teng ravishda namoyon bo'lish xususiyati deb ta'rif beradi.

O'zbekistonda raqobatbardoshlikni oshirish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Zamonaviy adabiyotlarda bu xususda turli yondashuvlar ta'riflangan va unga har kim har xil yondashuvlarni qo'llaydi. Kimdir mahsulotining sifatini oshiradi, kimdir menejment tizimi va jarayonlarni takomillashtiradi, kimdir menejment sifatini oshiradi. Bu nazariy jihatdan raqobatbardoshlik darajalari, deb ataladi. Bundan tashqari, korxonalar turli yondashuvlarni qo'llaydilar. Kimdir tashqi resurslardan, kimdir ichki resurslardan oqilona foydalanadi. Tashqi omillarning ta'siri ostida usullarning xilma-xilligi ortib boradi.

---

<sup>7</sup> Селезнева А.В. Конкурентоспособное предприятие: основные тенденции преобразования//Вестник ПНИПУ, 2014.Т.16. №2. - С.105-110.

Tadqiq etilayotgan muammo bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili natijasida raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha quyidagi tendensiyalarni ko'rsatish mumkin: mahsulot yoki xizmatning sifatiga ta'sir ko'rsatadigan biznes-jarayonlarni takomillashtirish; biznes strategiyasini o'zgartirish; mahsulot (xizmat) sifatini yaxshilash; iste'molchilar bilan ishlash (o'zaro munosabat) sifatini oshirish; menejment tizimini yaxshilash (sifat menejmenti tizimini).

Raqobat muvaffaqiyatining strategik omillarini tashqi iqtisodiy muhitning harakatchanligi va globallashuvi hal qiluvchi darajaga ko'tarmoqda. Shuning uchun korxonalar va muassasalar uzoq muddatga yo'naltirilgan strategik muqobillarga ega bo'lishlari va ularni baholay olishlari, samarali biznes va xo'jalik aloqalariga asoslangan ittifoqlarni shakllantirishlari lozim.

Tadbirkorlik tuzilmasi sifatida korxonalarining raqobatbardoshligini o'zaro bog'liq bo'lgan raqobat ustunliklari tizimi sifatida qarash mumkin. Bu esa, raqobatbardoshlikni raqobat ustunliklarini samarali boshqarish, deb tushunishga imkon yaratadi. Masalan, korxonaning raqobat ustunligi tizim ichki omillari (ishlab chiqarish potentsiali), tizimli omillar yig'indisi (manbalar imkoniyati), tizimdan tashqaridagi omillar (ishlab chiqarish va manbalarni o'z ichiga oluvchi integrasion imkoniyatlar) bilan belgilanadi. Har bir keltirilgan yig'indi korxonaning raqobat ustunligini va raqobatbardoshligini shakllantirish uchun muhim hisoblanadi. Raqobat ustunligi ayni shu damda maqsadli omillarning tuzilishi va proporsiyalari, korxonaning rivojlanish sharoitlari va omillardan samarali foydalanishni ta'minlashi, omillarni yaratish, takomillashtirilishi va yangilanishi tezligi, rivojlanganlik va maxsuslishtirilganligi darajasi bilan ham belgilanadi. Raqobat ustunligiga ta'sir etuvchi omillarning barcha parametrlari korxonada doirasida ularning tizimli birligida, integral potentsial bilan belgilanadi. Bizning fikrimizcha, raqobatbardoshlik darajalarini uch pog'onaga ajratish maqsadga muvofiq, deb hisoblash mumkin. Bular: mahsulot raqobatbardoshligi; korxonalar raqobatbardoshligi; milliy raqobatbardoshlik.

Globalashuv sharoitida raqobat muhiti bozor holatining indikatorini hisoblanadi: bozor agentlarining miqdori qancha ko'p bo'lsa, bozor ustunliklarining farqi qanchalik yorqinroq namoyon bo'lsa, bozor shunchalik samarador, deb tasavvur qilinadi.

Dissertatsiya ikkinchi bobi, 2-paragrafi **“Raqobat muhiti va raqobatbardoshlikning dialektik aloqadorligiga doir zamonaviy yondashuvlar”** deb nomlanadi. Unda raqobat muhiti to'g'risidagi qarashlar tahlil qilingan va uning ta'rifi keltirilgan. Shuningdek, raqobat muhiti va raqobatbardoshlik dialektikasining xususiyatlari o'rganilgan. Raqobat muhitining mohiyati bozor raqobat aloqadorliklarining o'zaro bog'liqligida, raqobat muhitining o'ziga xos xususiyatlari va u bajaradigan funksiyalari bilan tavsiflanadi. Raqobat muhiti bozor xo'jaligining barcha aspektlariga: bozor aktorlarini o'z biznes jarayonlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan

kurashga undash orqali raqobatni rivojlantirish, sotuvchi va xaridorlarning manfaatlari muvozanatini ta'minlash, inflyatsiya jarayonlarini jilovlashga o'z ta'sirini o'tkazadi. Natijada, bunday ta'sir milliy iqtisod raqobatbardoshligining oshishida namoyon bo'ladi. Bozor agentlari ichki va tashqi omillar ta'sirida ma'lum institutsional doirada o'zaro munosabatda bo'ladilar hamda bu institutsional doira agentlarni foyda olish maqsadida o'z raqobat ustunliklarini realizatsiya qilish yo'nalishida muvofiqlashtiradilar. Bu jarayon doimiy va uzluksizdir hamda raqobat muhiti to'g'risida yagona barqaror o'z-o'zini qayta ishlab chiquvchi tizim sifatida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Tashqi va ichki raqobat muhitida raqobatbardoshlikni omili, raqobatbardoshlikka erishish usullaridan biri sifatida zamonaviy iqtisodiyotda qo'llaniladigan benchmarking amaliyotini keltirish mumkin. Benchmarking o'z faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida bir korxonadan raqobat muhitidagi raqobatbardosh bo'lgan boshqa korxonalarining tajribasini o'rganish, tahlil qilish va o'z faoliyatiga joriy etishdan iborat. Zamonaviy dunyoda raqobat global xarakter kasb etmoqda va ko'plab korxonalar jahon standartlariga mos kelishga harakat qilmoqdalar. Bizning fikrimizcha, benchmarking korxonaning o'z maqsadlarini jahon talablariga moslashtirishning eng yaxshi usulidir. Maqsadga yo'naltirilgan holda benchmarkingni qo'llash 1979 yilda Kseroks kompaniyasida boshlangan. Ma'lum vaqt o'tgach, benchmarking falsafasi eng ilg'or kompaniyalar tomonidan qo'llanila boshlandi.

XX asr so'nggi o'n yilligidan boshlab raqobatning xulq-atvor bilan bog'liq jihatiga katta e'tibor berila boshlandi. Raqobatchilarning hatti-harakatlarini qanday qilib oldindan bilish va ularga moslasha bilish kerak? Uzoq muddatli raqobat ustunligiga erishish uchun qanday strategiyani tanlamoq kerak? Bunday savollarning vujudga kelishiga XX asr 70-yillarida yapon firmalarining fenomenal muvaffaqiyati, ya'ni ular tomonidan asosiy bozorlardan jahon yetakchilarining siqib chiqarilishi sabab bo'ldi va yangi raqobat ustunliklarini yaratish hamda ularni realizatsiya qilish metodlarini o'ylab topish ustida bosh qotirishga olib keldi. Vaqt bo'yicha keyingi omil-bu axborot texnologiyalarining rivojlanib, barcha sohalarga shiddat bilan kirib kelishi texnologik, tashkiliy va bozordagi o'zgarishlarning tezlashishiga sabab bo'ldi. Biznesning kelajagi porloq yo'nalishlarini aniqlash va uzluksiz ravishda innovatsiyalarga sarflanayotgan sarf-harajatlarni qoplash raqobat bellashuvining asosiy muammolariga aylandi. Nihoyat, XX asr oxiridagi bozorlarning globallashuvi reallikka aylangach, raqobat kurashining metodlarini izlash, bozorlardagi o'z joyini egallash masalalari strategik menejmentning o'zak unsuriga aylandi. Buning barchasi tashkilot oldiga doimo o'zgarib turib, barqaror qolish vazifasini qo'ydi.

Raqobat muhiti ishtirokchilari mazkur muhitda ma'lum xulq-atvorni tanlaydilar. Bu xulq-atvor raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Raqobat muhitidagi xulq-atvor to'g'risidagi M.Porterning "Raqobat kuchlari" konsepsiyasi,

“Raqobat tashkiliy madaniyatlar kurashi sifatida”, “Bozor makoni uchun kurash”, “Liderlik uchun kurash”, “Hamkorlikka yo’naltirilgan raqobat”, “Raqobat ustunligiga erishish” kabi konsepsiyalar tahlil qilindi va taqqoslandi. Ularning umumiy tomonlari aniqlandi.

Dissertatsiya ikkinchi bobi 3-paragrafi **“Raqobatbardoshlikka ta’sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillar”** deb nomlanib, unda raqobatbardoshlikka ta’sir etuvchi omillar ikki guruhga ajratib o’rganilgan. Shunday qilib, raqobatbardoshlikka ta’sir etuvchi omillarni obyektiv va subyektiv omillarga bo’lib olish mumkin. Obyektiv omillar-bu ma’lum mamlakat va ma’lum vaqtda xo’jalik yurituvchi subyektlar va boshqa bozor ishtirokchilarining irodasiga bog’liq bo’lmagan omillardir. Ularga mamlakatdagi xom-ashyo bilan ta’minlanganlikni belgilovchi tabiiy-geografik va iqlim sharoitlari; iqtisoddagi ma’lum subyektlarning iqtisodiy rolini hamda ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyot shaklini belgilovchi iqtisodiy tizimdagi mavjud ishlab chiqarish munosabatlari; ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va xarakteri-ishlab chiqarishni ta’minlovchi ashyoviy, energetik, shaxsiy va boshqa omillar kiradi. Ishlab chiqarish (iqtisodiy) munosabatlari va ishlab chiqaruvchi kuchlar rivoji, o’z navbatida iqtisodiy tizimga kiruvchi subyektlar faoliyati bilan bog’liq bo’lgan jamiyat iqtisodiy tizimi va mulk shaklini belgilaydi. Bundan tashqari, obyektiv omillarga mamlakatning jahon iqtisodiy tizimidagi o’rni, obro’si hamda boshqa omillarni ham kiritish mumkin. Subyektiv omillar-bu bevosita xo’jalik yurituvchi subyektlarning bozordagi raqobat ustunligini belgilovchi, xo’jalik yurituvchi subyektning o’ziga va boshqa bozor ishtirokchilariga bog’liq bo’lgan, to’g’ridan-to’g’ri yoki bilvosita xo’jalik yurituvchi subyektlarga yoki ular chiqarayotgan mahsulotga ta’sir etuvchi omillar: mahsulot sifati, narxga bog’liq raqobatbardoshlik, mahsulotni sotish va bozorda ilgari surish tizimi, mahsulotga haq to’lash shakli, firmaning obro’si, hamda davlat tomonidan olib borilayotgan savdo siyosati kiradi.<sup>8</sup>

Falsafiy jihatdan qaraganda, obyektiv, ya’ni inson irodasiga bog’liq bo’lmagan omillarni tadqiq etishga e’tibor kuchaymoqda. Bu hodisani tadqiqotchilarning ijtimoiy voqelikni o’rganishda tabiiy fanlardagi moddiy voqelikni o’rganish metodlarini tatbiq etishga intilishi bilan tushuntirish mumkin. Lekin tabiatda barcha narsa insonlar ongiga bog’liq bo’lmagan holda yuz bersa, insonlar bu qonunlarga moslashishi lozim bo’lsa, ijtimoiy hayotda qonuniyatlarning o’zi turli individlarning mustaqil hatti-harakatlari natijasida paydo bo’ladi.

Jamiyatdagi bozor sohasi bilan birgalikda sotsial sohaning mavjudligi va subyektiv omilning iqtisodiyotdagi roliga bag’ishlangan tadqiqotlar zamonaviy iqtisodiy nazariyada A.Tverski, D. Kaneman, O.Uilyamson, F.Denzau, D.Nort va boshqa tadqiqotchilarning asarlari xulq-atvor iqtisodiyoti, yangi institutsional iqtisodiy nazariya kabi yo’nalishlarning paydo bo’lishiga olib keldi.

---

<sup>8</sup><https://cyberleninka.ru/article/n/obektivnye-factory-vliyaushie-navneshneekonomicheskuyu-deyatelnost-subektov-hozyaystvovaniya>

Bob yakunida quyidagi xulosalar chiqarilgan:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy sohada “raqobatbardoshlik” tushunchasi uch darajaga ega. Bular, mahsulotlar (tovar, hizmat, ish) raqobarbardoshligi, korxonalar (firma, tashkilot, muassasa) raqobatbardoshligi, mamlakat raqobatbardoshligi. Raqobatbardoshlikning bu uch darajasi bir biri bilan dialektik aloqadorlikda bo’lib, bir zanjirni hosil qiladi.

2. Tashqi (institutsional atrof-muhit, ularning o’lchamlari, iqtisodiy agentlar miqdori va h.k.) va ichki (investitsion, ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion va boshqa) omillar ta’siri ostida o’z raqobat ustunliklarini realizatsiya qilishga yo’naltirilgan, institutsional chegaralar bilan qattiq determinatsiya qilingan bozor agentlari tomonidan amalga oshiriladigan o’zaro aloqadorliklar (transaksiyalar) yig’indisiga raqobat muhiti deyiladi

2. Raqobat muhiti deganda bozor ishtirokchisi bo’lgan barchaga xo’jalik yuritishida teng imkoniyatlarni ta’minlaydigan iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy, siyosiy sharoit va omillarni tushunish kerak.

3. Raqobatbardoshlik va raqobat muhiti dialektik aloqadorligi quyidagi xususiyatlarga ega:

1) raqobatbardoshlik qobiliyati raqobat muhitida namoyon bo’ladi;

2) raqobatbardoshlik qobiliyatining vaqtdagi davomiyligi raqobat muhitidagi sharoitlarning nechog’lik qulay ekanligiga bog’liq;

3) raqobat muhitida nafaqat qarama-qarshilik va ziddiyat, balki raqobatbardosh tashkilot etuvchilarning hamkorligi, kooperatsiyasi ham vujudga kelishi mumkin.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Strategiya, raqobat ustunligi va yetakchilik-raqobatbardoshlikning determinatsion omillari”** deb ataladi. Mazkur bobda strategiya, raqobat ustunligi va yetakchilik tushunchalari tahlil etilib, ularning raqobat muhitida raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiluvchi omillar sifatida ahamiyati tahlil etilgan.

Dissertatsiya uchinchi bobi 1-paragrafi **“Optimal raqobatbardosh strategiya muammolari”** deb nomlangan va unda strategiya tushunchasi, strategiyalashning fan sifatida shakllanishi, raqobat muhitida optimal strategiyani yaratish va unga muvofiq faoliyat yuritish raqobatbardoshlikni oshirishga olib kelishi tadqiq etilgan. “Strategiya” so’zi yunon tilidan olingan bo’lib, “harbiy qo’mondonlik san’ati” ma’nosini bildiradi. U uzoq muddatni o’z ichiga oluvchi reja bo’lib, insonning har qanday faoliyatidagi murakkab maqsadga yetish usuli hamdir. Strategiyaning vazifasi mavjud manbalarni samarali ishlatib, asosiy maqsadga erishishdir. Uzoq vaqt davomida “strategiya” deganda asosan harbiy soha nazarda tutilgan, hozirgi davrda esa bu atama inson faoliyatining barcha sohalariga nisbatan uzoq muddatga mo’ljallangan reja sifatida ishlatilmoqda.

Strategiya fan sifatida shakllanish davrini o’z boshidan kechirmoqda. Strategiya nazariyasi va amaliyotining asoslarini yaratish uchun qadimgi, yangi davr klassiklari hamda zamondoshlar asarlarini asosiy bloklarini tizimlashtirish kerak bo’ladi.

Strategiyani ishlab chiqish har bir tashkilot, kompaniya uchun murakkab va o'ziga xos jarayon hisoblanadi. Kompaniyani boshqarish tizimi-bu raqobat kurashini olib borish strategiyasini yaratish va tatbiq etish kabi muhim tashkil etuvchilaridan iborat murakkab tizim. Xizmat ko'rsatish, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish sohalarida amalga oshayotgan doimiy o'zgarishlar shart-sharoitida kompaniyani samarali boshqarish, korxonani manbalari hamda imkoniyatlaridan foydalanish natijadorligini oshirish zarurati paydo bo'lmoqda. Ammo, ba'zi holatlarda rahbarlar bozorda bundan keyingi shart-sharoit taraqqiyotini hamda yangi bellashuvchilarni paydo bo'lishini e'tiborga olmagan holda olinadigan foydani bashorat qiladilar. Aynan shu narsa rejalashtirishni kuchsizlantiradi hamda moliyaviy natijaning birmuncha aniqligi darajasini pasaytiradi.

Strategiyaning samaradorligi va sifati uning bosqichma-bosqich puxta ishlab chiqilganligiga ko'p darajada uzviy bog'liq bo'lishi ayon. Strategik boshqaruvning birinchi bosqichi-strategik rejalashtirish hisoblanadi. U uzoq muddatga mo'ljallangan kelajakda raqobat o'rnini, pozitsiyasini ishg'ol etishdan iborat bo'lgan intilishlar rejasidir. Amerikalik tadqiqotchi M.Porter tomonidan raqobatbardosh strategiyaning "sarf-harajatlardagi absolyut yetakchilik", "differensiatsiya yoki farqlash", "diqqatni jamlash" kabi turlari ta'riflangan. A.Yudanov kommutant, violent, ekselerent, patient strategiyalarni taklif etgan. Turli xil mualliflar tomonidan taklif etilgan strategiyalarni tahlil etish natijasida ularda umumiylik bor ekanligi aniqlandi. Optimal raqobatbardosh strategiyani tanlashda tashkilotning imkoniyatlari va resurslarini hisobga olishi va ularni tashqi muhitning holati bilan taqqoslab ko'rishlari lozim bo'ladi. Bir vaqtning o'zida ko'rib o'tilgan strategiyalarning yutuqlari va kamchiliklarini e'tiborga olish muhim bo'ladi.

2023 yil 11 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi farmoni kuchga kirdi. Undagi asosiy g'oyalardan biri barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olishdir. Maqsadlardan biri sifatida 2026 yilga qadar kambag'allikni 2022 yilga nisbatan 2 barobarga, 2030 yilga qadar esa keskin qisqartirish belgilangan.

Hozirgi kunda o'zbekistonlik korxonalar nafaqat o'z yurtidosh ishlab chiqaruvchilari, balki xorijlik ishlab chiqaruvchilar bilan ham tovar, narx va assortiment raqobati sharoitida faoliyat yuritmoqdalar. Tovar ishlab chiqaruvchilarning raqobat ustunligini mayda detallarigacha o'ylangan strategiyasini shakllantirish ularga bozorning o'zlariga mos segmentini egallash va mamlakatning jahon xo'jaligida iqtisodiy, ilmiy-texnik va inson potensialiga mos ravishda imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunday shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, birinchi o'ringa mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobat ustunligini shakllantirish muammolari chiqadi va bu esa o'z navbatida, har tomonlama ilmiy tahlilni taqozo etadi.

Dissertatsiyaning 3-bobi 2-paragrafi **“Raqobat ustunligi-raqobatbardoshlikning bosh omili”** deb nomlangan. Raqobatbardoshlik raqobat ustunligi borligini ifodalovchi oqibat hisoblanadi. Raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun ilmiy izlanishlar, tajribaviy o'rganish, konstruktorlik ishlari, ishlab chiqarish, boshqaruv, moliya, marketing va h.k. sohalaridagi raqobat ustunligiga olib keluvchi butun ishlab chiqarish-xo'jalik sikli bo'yicha doimiy faoliyat zarur. Firmaning raqobatbardoshligi-bu kompaniyani boshqarishning barcha muammolari bo'yicha raqobat ustunliklarining natijasi hisoblanadi. Ko'pchilik tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, tashkilotning raqobat ustunligi bu uning boshqa raqobatchilardan afzalliklarini namoyon qilish imkoniyatidair. Tashkilot raqobat ustunliklarining barcha turlarini ularga erishish nuqtai-nazaridan uch guruhga bo'lish mumkin:

- quyi darajadagi ustunliklar;
- o'rta holatni egallovchi ustunliklar;
- yuqori darajadagi ustunliklar.

Dissertatsiyaning 3-bobi 3-paragrafi **“Raqobatbardoshlikda liderlikning ahamiyati”** deb nomlangan bo'lib, unda raqobat muhitida raqobatbardoshlikni oshirishda yetakchilikka erishish, ham ichki, ham tashqi muhitdagi faoliyat samaradorligi kabi masalalar tahlil etilgan. Tadbirkorlik faoliyatining deyarli barcha bosqichlarida “yetakchilik” tushunchasi unga hamroh bo'ladi. Bir yoki bir necha kishining, ya'ni jamoaning irodasi va xohishiga ko'ra yangi subyekt paydo bo'ladi, o'zining rahbarlik qobiliyatlariga egaligiga ishontirgan holda jamoani tuzib, unga yetakchi bo'ladilar. Ushbu paydo bo'lgan subyekt tegishli sharoitlarda hamda tegishli sa'y-harakatlari oqibatida raqobatchilardan o'zib, biror mahsulotlar, ishlar hamda xizmatlar bozor qismining yetakchisiga aylanishi mumkin bo'lgan raqobat muhitiga kelib tushadi. Tadbirkorlik faoliyatini yuritmoqchi bo'lgan subyektini tuzish paytida “yetakchi” deganda biror bir kishi (jismoniy shaxs)ni nazarda tutadigan bo'lsak, subyekt vujudga kelib, raqobat muhiti ishtirokchisiga aylanganda esa biz, ko'p hollarda, tashkilotni, korxonani nazarda tutamiz. Chunki, tadbirkorlik subyektining o'z tashkiliy, moliyaviy, mavqeiga bog'liq hamda boshqa bir imkoniyatlariga ko'ra yetakchilikka erishish ehtimoli ko'proq.

Lider mustaqil ravishda raqobat bellashuvi jarayonida yangi faoliyat turlari va yo'nalishlarini ishlab chiqadi. Maqsad qilib qo'yilgan vazifalarni bajarishni kuzatishga kelsak, liderni atrofidagi tashqi muhit tomonidan raqobat jarayonida nazorat amalga oshiriladi. Bu funksiya shuning uchun raqobat kurashi sharti bo'la olmaydi. Lider faoliyat dasturini yaratadi, ya'ni maqsadga erishishga olib keladigan usullar va vositalar ishlab chiqish majburiyatini o'ziga oladi. Aynan tadbirkorlik subyektlari raqobat kurashining boshqa ishtirokchilariga nisbatan taraqqiyotning eng katta harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi va bu funksiya raqobat kurashi sharoitiga xos deb ta'kidlash mumkin. Tashkilot yetakchisining qator funksiyalari mavjud.

Raqobatdagi liderlik xulq-atvor xarakteriga ega deb, raqobat liderlarining tashqi muhitga ta'siri turli raqobat xatti-harakatlari orqali amalga oshirilganligidan kelib chiqib, xulosa chiqarish mumkin. Raqobat bellashuv jarayonining xulq-atvor xarakterida ekanligini ushbu tasdiqlaydi. Bundan tashqari, aytilganlardan kelib chiqadiki, liderlikka nomzodlarning tadbirkorlik subyektlarining tashqi muhitga ta'siri oldingi yetakchilarnikiga qaraganda, ayniqsa raqobat bellashuvi chog'ida kuchliroq bo'lishi lozim. Shunday qilib, yetakchilar va liderlikka intiluvchilar o'rtasidagi kurash tadbirkorlik subyektlarining tashqi muhitga ta'siri hisobiga bir nomli mahsulotlar hamda xizmatlar bozorida tadbirkorlik munosabatlari rivojlanishining asosiy yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi, deb ta'kidlash mumkin. Tadbirkorlik biznesining har bir ishtirokchisi yutuqqa erishish uchun raqobatchilarning tashqi muhitga ta'sir kuchini shuning uchun ham e'tiborga olishi hamda baholashi zarur.

Bob yakunida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Raqobat muhitida uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlashda optimal strategiyani yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Strategiyani yaratishda bashorat va prognozlashning ilg'or ilmiy metodlaridan foydalanish lozim bo'ladi.
2. Yuqori darajadagi barqaror raqobat ustunligiga erishish uzoq muddatli yetakchilikka erishish imkonini yaratadi.
3. Raqobat muhitidagi yetakchilik ikki xil ma'noda qo'llanilishi mumkin. Birinchisi, bozordagi raqobatchilar ichidagi eng ko'p daromadga, yuqori darajadagi ustunlikka ega bo'lgan ishtirokchi nazarda tutiladi. Ikkinchidan, raqobat muhitida yetakchilikka intilayotgan tashkilotning rahbari tushuniladi. Ichki muhitda yuqori darajadagi ustunlikni yaratish uchun tegishli shart-sharoitlarni vujudga keltirish orqali bozordagi yetakchilikka erishishga olib kelish uning asosiy vazifasi hisoblanadi. Lider faoliyatining natijasi u rahbarlik qilayotgan tashkilotning raqobat muhitida egallagan mavqei bilan belgilanadi.
4. Raqobatbardoshlik va raqobat ustunligi o'rtasida sabab-oqibat dialektik bog'lanishi mavjud bo'lib, raqobatbardoshlik raqobat ustunligi mavjudligining oqibati hisoblanadi. Raqobat ustunligisiz raqobatbardoshlik bo'lishi mumkin emas.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida raqobatbardoshlik masalasi istiqbollari”** deb nomlangan. Zamonaviy O‘zbekiston global raqobat sharoitida turli reytinglarda munosib o‘rin egallashga harakat qilmoqda. Buning uchun, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin egallagan sohalarga hukumat tomonidan alohida e'tibor berilmoqda. Shu jumladan, oliy o‘quv yurtlarida yetishtirilayotgan mutaxassislarning naqadar xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh ekanligi, ular egallayotgan kasblarga bo'lgan ehtiyojning naqadar yuqoriligi, ushbu mutaxassislarning amaliyotda tegishli kompetensiyalarga ega ekanligi kelajakda O‘zbekistonning rivojlangan mamlakatlar orasidan joy egallashiga ham ta'sir qiladi. Shu bilan birgalikda, mamlakatimizda yashayotgan aholi turmush

darajasining yuqoriligi, farovonligi, kambag'allikni qisqartirishning milliy modelining shakllanganligi ham xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarga chiqish imkonini beradi.

Dissertatsiya to'rtinchi bobi 1-paragrafi **“Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish omillari”** deb nomlangan. Mazkur bobda O'zbekistonda oliy ta'lim sohasidagi raqobatbardoshlikni ta'minlash masalalari tahlil qilingan. O'zbekiston dunyoda ta'limga harajatlar bo'yicha 28-o'rinni, umumiy infrastruktura bo'yicha 37-o'rin, bozor murakkabligi bo'yicha 24-o'rin va biznes ochish yengilligi bo'yicha jahonda 8-o'rinni egallaydi.<sup>9</sup> “Yangi O'zbekiston” tushunchasi uchun asos bo'layotgan va unda o'z aksini topayotgan eng muhim jihatlar va amaliy mezonlardan biri sifatida raqobatbardosh va dunyo uchun ochiq ijtimoiy-iqtisodiy makonni barpo etishga sobitqadamlik bilan kirishilgani respublikamiz Prezidenti tomonidan ta'kidlandi.<sup>10</sup>

Texnologik taraqqiyotga, bizning tushunishimizcha, ishlab chiqarish quvvatlarini zamonaviylashtirish, korxonalarining innovatsion faolligini rag'batlantirishga faqat yangi texnologik yechimlarni joriy etish orqali erishib bo'lmaydi. Bunday maqsadga, shu bilan birga, innovatsion faoliyatni kadrlar bilan ta'minlash orqali erishsa bo'ladi. Shuning uchun ta'lim tizimi innovatsion iqtisodning kadrlar potentsiali rivojini, malakali kadrlar kasbiy tayyorgarligini ta'minlovchi va oxir-oqibatda jadal texnologik taraqqiyotni amalga oshiruvchi eng muhim ijtimoiy institut bo'lib qolmoqda. Kasbiy ta'lim tizimining taraqqiyotini ta'minlovchi, iqtisod ehtiyojlariga moslashuvining oshishiga olib keluvchi harakatlantiruvchi kuchi bu ta'lim tashkilotlari orasidagi raqobatdir. Yu.B.Rubinning fikricha, “tomonlarning potentsiali hamda amalga oshirilayotgan raqobat hatti-harakatlarining kuchi va sifati ular uchun umumiy bo'lgan raqobat muhitidagi raqobatbardoshliklarining mazmunini tashkil etadi”<sup>11</sup>. Ta'lim tashkilotlari uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlovchi raqobat ustunligiga erishishga olib keluvchi omillarni boshqarishlari kerak.

Ta'lim tashkiloti faoliyatining strukturaviy yadrosi uning ta'lim dasturlarining yig'indisi bo'lganligi uchun, ta'lim kontentining sifati, o'quv rejalari mazmunining mehnat bozori ehtiyojlariga mos kelishi, professor-o'qituvchilar tarkibining malaka darajasi, o'quv jarayonining moddiy-texnik ta'minoti darajasi va boshqalar qadriyatning indikatori bo'lib namoyon bo'lishi mumkin. Indikatorlar yig'indisi nafaqat ta'lim oluvchilar, balki boshqa ta'lim xizmatlari iste'molchilariga, masalan, ish beruvchi tashkilotlarga qadar kengaytirilishi mumkin. Ta'lim tashkiloti raqobatbardoshligi ko'rsatkichlarining ko'p darajalarga egaligi va uni belgilovchi raqobat ustunliklarining ko'p xilligi raqobatbardoshlikni

<sup>9</sup> <https://review.uz/post/sostoyanie-predprinimatelskoy-ekosistem-v-uzbekistane>

<sup>10</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: “O'zbekiston” нашриёти, 2021.- 464 б., -Б.28

<sup>11</sup> Рубин Ю. Б. Конкуренция в российском образовании: теория и противоречивые реалии // Университетское управление: практика и анализ. 2017. Т. 21. - № 5 (111). - С. 17–30. DOI: 10.15826/umpa.2017.05.058. - С.18

boshqarishni murakkablashtiradi, hamda shuning bilan birga ta'lim tashkiloti tomonidan strategik qarashni yo'qotilishi va iqtisodiyot taraqqiyotining milliy maqsadlariga aloqasi bo'lmagan lokal operatsion vazifalarga diqqatning jamlanishi ehtimolini keltirib chiqaradi.

A.I.Vasilyev ta'lim tashkilotining raqobatbardoshligini “raqobat hatti-harakatlarini amalga oshirish va ularni amalga oshirishdagi kompetentlik” deb qaraydi.<sup>12</sup> U o'z monografiyasida ta'kidlaydiki, “raqobatbardoshlik ikkita tashkil etuvchiga ega, bular-imkoniyat va mahorat. Raqobat xatti-harakatlarini amalga oshirish imkoniyati potensial raqobatbardoshlikni shakllantiradi. Raqobat xatti-harakatlarini amalga oshirish mahorati (kompetentligi) mavjud raqobatbardoshlikda ko'rinadi”.<sup>13</sup>

Qoida sifatida aholining ta'lim olishi va ishchi kuchining malakasini oshirishga e'tibor berilgan davlatlar doimo tez rivojlangan. Ishlab chiqarish jarayonlarining o'sib borayotgan yuqori intellektualizatsiyasi kuzatilayotgan hozirgi davrda insoniy, ya'ni nomoddiy kapitalning ahamiyati oshib bormoqda. Bunday kapital esa ta'lim, madaniyat va sog'liqni saqlash sohalariga mablag' sarflash hisobiga vujudga keladi. Oliy ta'lim muassasasi raqobatbardoshligining ichki va tashqi omillari o'rganildi. Tadqiqot doirasida ijtimoiy fikrni o'rganish maqsadida so'rovnoma o'tkazildi. Misol uchun, “Ichki va xalqaro mehnat bozorida bitiruvchilarning raqobatbardoshligi ularning qaysi xususiyatlariga bog'liq?(bir nechta javobni tanlash imkoni berilgan)”- degan savolga 70,2 foiz respondent “bitiruvchilarning xorijiy tillarni bilishi”, 34,3 foizi “xalqaro reytingda yuqori o'rinlarda turuvchi OTMni bitirganligi”; 55,6 foizi “ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatining rivojlanganligi”; 56,2 foizi “kasbiy kompetensiyalarning mavjudligi”; 37,1 foizi “ish beruvchining talablariga javob berishi”; 0,6 foiz “hammasi,”-deb javob berishgan.

j/s	Ichki va xalqaro mehnat bozorida bitiruvchilarning raqobatbardoshligi ularning qaysi xususiyatlariga bog'liq?	foizda
1.	bitiruvchilarning xorijiy tillarni bilishi	70,2
2.	xalqaro reytingda yuqori o'rinlarda turuvchi OTMni bitirganligi	34,3
3.	ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatining rivojlanganligi	55,6
4.	kasbiy kompetensiyalarning mavjudligi	56,2
5.	ish beruvchining talablariga javob berishi	37,1

Ushbu javoblardan bitiruvchilarning xorijiy tillarni bilishi va kasbiy kompetensiyalarga egaligi ularning raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omil ekanligiga ko'proq ahamiyat berilgan.

<sup>12</sup> Васильев А. И. Конкурентоспособность вуза в свете теории конкуренции и норм российского законодательства // Современная конкуренция. 2017. № 6. Т. 11. С. 122–134.

<sup>13</sup> Васильев А. И. Управление конкурентоспособностью образовательной организации высшего образования: вопросы теории: монография. – М.: Университет «Синергия», 2019. – 186 с. Б.14

“Sifatli ta’lim berish natijasi sifatida nima nazarda tutiladi?”-degan savolga respondentlarning 46,6 foizi “bitiruvchilarning xalqaro mehnat bozoridagi muvaffaqiyatlari”, 15,2 foizi “bitiruvchilarning ishga joylashish foizi”; 21,3 foizi “bitiruvchilarning amaliyotni yaxshi bilishi”; 14,5 foizi “bitiruvchilarning mahalliy mehnat bozoridagi muvaffaqiyatlari”; qolgan respondentlar “hammasi” yoki boshqa o‘z fikrini bildirgan.

J/s	Sifatli ta’lim berish natijasi sifatida nima nazarda tutiladi?	foizda
1.	bitiruvchilarning xalqaro mehnat bozoridagi muvaffaqiyatlari	46,6
2.	bitiruvchilarning ishga joylashish foizi	15,2
3.	bitiruvchilarning mahalliy mehnat bozoridagi muvaffaqiyatlari	14,5
4.	hammasi	23,7

Javob berganlarning deyarli yarmi bitiruvchilarning xalqaro mehnat bozoridagi muvaffaqiyatlarini sifatli ta’lim berishning natijasi sifatida ko‘rmoqdalar.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bob 2-paragrafi “**Kambag‘allikni qisqartirish-milliy raqobatbardoshlik omili**”, deb ataladi. Ushbu bobda kambag‘allik ijtimoiy-iqtisodiy fenomen sifatida o‘rganilib, uni davlatning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligiga ta’siri tahlil qilingan. Dissertant fikriga ko‘ra, O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish orqali xalq farovonligini oshirish mumkin va bu milliy raqobatbardoshlikni oshirishning omilidir. Kambag‘allik ijtimoiy hodisa sifatida ko‘p qirralidir. Bu xususda ko‘plab ta’riflar va tasniflar mavjuddir. Ushbu muammo hatto, miloddan oldingi VIII-VII asrlarda yozilgan asarlarda qayd etib o‘tilgan. Shoir Gesiod “Mehnatlar va kunlar” poemasi insoniyat tarixini besh davrga bo‘ladi. Kronos tomonidan yaratilgan oltin asr odamlari yo‘qchilik va qashshoqlikni bilmaydilar va o‘z vaqtlarini bazmlar va dono suhbatlarda o‘tkazadilar. Boshqa antik asarlarda ham ibtidoiy idilliya sahnalarini ko‘rish mumkin. “Kambag‘allik” tushunchasi, siyosiy tushuncha sifatida, Qadimgi Rimdayoq o‘zining ta’rifiga ega edi. Shahardagi kambag‘allar (“pauperlar”) ustidan nazorat o‘rnatish hokimiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri edi.

Yevropada xristianlikning yoyilishi insonlar ongida o‘zgarishlarga olib keldi. Mulkiy adolat to‘g‘risidagi masala dastlabki nasroniylar ongida chekkada juda kichik joyni egallagan. Xristianlikda yerdagi ne‘matlarga befarqlilik ko‘p marta takrorlanardi va voqealarning guvohlari hamda keyingi davr kishilari buni boylukni rad etish deb tushunardilar. Ammo bu judayam sodda tushunish hisoblanadi. Injilga murojaat qilish bizga boylikka ega bo‘lish faqat hayotiy maqsadga aylanib, undan yuqoriroq bo‘lgan ma’naviy cho‘qqilarni to‘sib qo‘yganda qoralanishini ko‘rsatadi. Islomda esa, xalol yo‘l bilan topilgan daromaddan zakot berish farzi kambag‘allikni oldini olish chorasi sifatida qaraladi.

Kambag‘allik to‘g‘risidagi A.Smit, D.Rikkardo, K.Marks, T.Maltus, V.Pareto, Amartya Sen, P.Taundsenning qarashlari o‘rganildi va qiyoslandi. “Mutlaq kambag‘allik”, “nisbiy kambag‘allik”, “ijtimoiy mahrumlik bo‘yicha kambag‘allik” kabi tushunchalar tahlil qilindi.

Jahon tajribasida kambag'allikni baholashning bir nechta metodlari mavjud:

- statistik, bunda jon boshiga olinadigan daromadlar hisobiga aholining 10-20 foizi kambag'allar sifatida ko'riladi;
- normativ, ovqatlanish normasi yoki iste'molning minimal standartlariga ko'ra (minimal iste'mol savatchasi);
- mahrumlik metodi, hayotiy muhim mahsulotlar va tovarlarning to'laqonli iste'mol qilinmasligi yoki, aksincha, birinchi hayotiy ehtiyojning qoniqtirilganligi metodi (ovqatlanishga harajatlar ulushi, oziq-ovqatning energetik qiymatini aniqlash);
- stratifikatsion yoki tabaqalashgan, bunda o'z-o'zini ta'minlash imkoniyatlari cheklangan aholi qatlamlari (qariyalar, nogironlar, to'liqsiz va ko'p bolali oilalar a'zolari, boquvchisiz qolgan bolalar, ishsizlar, immigrantlar va h.k.) aprior holatda kambag'allar qatlamiga kiritiladi;
- antropologik-aholi guruhlari bo'yicha (ularning hayot darajasi uchun maxsus, struktura tashkil etuvchi omillar: yer, uy-joy, ta'lim, sog'liq, uy xo'jaligining roli va daromadlarning naturalizatsiyasi va boshqalardan kelib chiqib);
- evristik, jamoatchilik yoki respondentning o'z fikridan kelib chiqib hayot darajasining yetarli yoki yetarli emasligini aniqlash;
- iqtisodiy, davlatning kam ta'minlangan aholini moddiy ta'minotini qo'llab quvvatlashga yo'naltirilgan resurs imkoniyatlari orqali kambag'allar kategoriyasini aniqlaydi.

Kambag'allikning mutlaq chegarasini davlat o'zining iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilaydi. Kambag'allik chegarasi yoki chizig'i ko'rsatkichi dastlabki ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan ne'matlarning natural yig'indisi (iste'mol savatchasi) yoki uning qiymatini ifodalovchi ko'rinishda tasavvur qilinadi. O'zbekistonda rasmiy asosiy kambag'allik chegarasi tirikchilik minimumi byudjeti asosida ifoda etiladi. 2024 yil 1 maydan O'zbekistonda minimal iste'mol xarajatlari miqdori kishi boshiga 1 oyga 648 ming so'm deb belgilandi. Mazkur miqdor pensiyalar va nafaqalarning eng kam miqdorini belgilashga asos bo'ladi.


2023 yilning 15 may kuni Sh.Mirziyoev "Ijtimoiy himoya reestri" orqali 2 million 300 ming muhtoj oila, xotin-qizlar, yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan vatandoshlarimiz moddiy yordam bilan qamrab olinganligini aytib o'tdi.<sup>14</sup>

Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonida e'lon qilingan axborotga ko'ra, 2024yil 1 iyul holatiga respublikamizdagi jami oilalariga nisbatan ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam oluvchi oilalar ulushi 12 foizni tashkil etadi. Ammo bunday moddiy yordam ko'rsatishning o'zi bilan muammoni bartaraf etib bo'lmasligi, kishilarda tadbirkorlik ruhini uyg'otish kerakligi, zamonaviy kasblarga o'rgatish va ish o'rinlarini ko'paytirish lozimligi ta'kidlandi.

---

<sup>14</sup> Камбағалликни қисқартириш бўйича янги дастур амалга оширилади// <https://president.uz/uz/lists/view/6313>

## 2022 ЙИЛДА ХУДУДЛАР КЕСИМИДА ЖАМИ ОИЛАЛАР ВА НАФАҚА ОЛГАН ОИЛАЛАР Сони



4.2.-rasm. 2022 yilda hududlar kesimida jami oilalar va nafaqa olgan oilalar soni

2023 yilning 19 may kuni Toshkentda “Kambag’allikni qisqartirish bo’yicha ilg’or tajribalarni qo’llash” mavzusida II Xalqaro forum bo’lib o’tdi (2022 yilda Buxoroda I forum bo’lib o’tgan edi). Ushbu forumda Xitoyning kambag’allikni qisqartirish bo’yicha tajribasi O’zbekistonda o’rganilishi va uning ijobiy jihatlaridan foydalanish mumkinligi ta’kidlandi. Shu bilan birgalikda kambag’allikni ko’p mezonli baholashning metodologiyasi yaratilishi kerakligi aytib o’tildi.

Dissertatsiyaning to’rtinchi bobi 3-paragrafi “**Yangilanayotgan O’zbekistonda raqobat muhitini rivojlantirish tendensiyalari**” deb atalgan. Unda O’zbekistonda so’nggi yillarda mamlakatimizning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish va turli indekslarda yuqori o’rinlarni egallash yo’nalishida amalga oshirilayotgan tadbirlar tahlil qilingan.

O’zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashuvi hamda tashqi savdoning liberalizatsiyalashuvi jarayonlarining kuchayishi sharoitida ichki bozorda raqobat muhitini ta’minlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish talab qilinadi. Bu esa mamlakatda raqobat muhitining shakllanish jarayonini tadqiq etish, sohaga doir qonunchilikni takomillashtirish, antimonopol siyosatni amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirishni obyektiv zaruratga aylantiradi. O’zbekistonda raqobat muhitini rivojlantirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 yanvardagi PF-5630-son «Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi

kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni<sup>15</sup>ga ko'ra Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining alohida davlat muassasasi sifatida ajratilishi maqsadga muvofiq deb topildi, 2020 yil 7 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" farmoni chiqdi va unga ko'ra "Raqobat to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. 2022 yil 29 yanvarda kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida keltirilgan vazifalarni amalga oshirish yo'nalishida "Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni (PF-228-son, 30.09.2022 y.) qabul qilindi. Ushbu farmonga muvofiq eksportchi korxonalarini ochiq tanlov orqali saralab, ularni yetakchi eksportyorlarga aylantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha "Yangi O'zbekiston-raqobatbardosh mahsulotlar yurti" dasturi amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonning barqaror rivojlanishi, jahon bozorida mustahkam o'rin egallashi, aholi turmush darajasi va farovonligini oshirish davlat siyosatining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Jahonda globallashtirishning masshtabi ortib borayotgan bir vaqtda har qanday o'zgarishlarni anglab oladigan shaxsni kamol toptirish taqozo qilinadi. Shu boisdan zamonaviy bilimlar va innovatsiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga keng joriy etish hamda mahsulot va xizmat turlarini muttasil yangilab borish hisobiga raqobatbardoshlikni ta'minlovchi infratuzilmani rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bob yakunida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Milliy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili va asosi ta'limdir. Ta'lim sifati esa oliy ta'lim muassasasining raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi muhim determinatsion omildir.
2. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan unumli foydalanish hamda kambag'allikni qisqartirish orqali davlatimizning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirishga erishish mumkin.
3. Zamonaviy bilimlar va innovatsiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga keng joriy etish hamda mahsulot va xizmat turlarini muttasil yangilab borish hisobiga raqobatbardoshlikni ta'minlovchi infratuzilmani rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.
4. O'zbekistonda korporativ ijtimoiy ma'suliyat tamoyillarini tatbiq etish - yangi mahsulotlar, xizmatlar, jarayonlar va yangicha bozor sharoitlarini yaratish uchun innovatsion g'oyalarga asos bo'lib xizmat qiladi.

---

<sup>15</sup> <https://lex.uz/docs/4160392>

## XULOSA

1. Qadimgi davr va O'rta asrlar jahon falsafasida raqobat odamlar o'rtasidagi hayotdagi eng yaxshi sharoitlarga ega bo'lish uchun mavjud bo'ladigan munosabat, axloq sifatida talqin qilingan. Uyg'onish davri va Yangi davrda esa fanlarning asta-sekinlik bilan falsafadan ajralib chiqishi bilan dastlabki iqtisodiy tafakkur maktablari vujudga keldi va ularning namoyandalari raqobatni iqtisodiy munosabat va jarayon sifatida sharhlay boshlaganlar.

2. Yangi va Eng yangi davrga kelib iqtisodiy yo'nalishlarda raqobat, raqobat muhiti va raqobatbardoshlik tushunchalari konkret tarixiy davr bilan bog'lab o'rganish natijasida raqobat tushunchasining ham mazmuni o'zgarib borgan va bu to'g'risida turli nazariyalar paydo bo'ldi. Mukammal va mukammal bo'lmagan raqobat, raqobatning bozor sharoitida ishtirokchilari, raqobatda qo'llaniladigan narx bilan bog'liq bo'lgan va narx bilan bog'liq bo'lmagan usullari to'g'risida nazariyalar paydo bo'ldi.

3. Mazkur tushunchalarning tarixiy evolyusiyasini davriylashtirishda quyidagi bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

-raqobat nazariyasi rivojlanishidagi arxaik davr-qadimgi yozma falsafiy manbalarda raqobatni insoniy munosabat sifatida tushunilishi (mil.ol. ikkinchi mingyillik o'rtalaridan XVIII asrgacha);

-raqobat nazariyasi rivojlanishidagi "mumtoz" davr-mukammal raqobat ideal modelidan raqobatni davlat tomonidan tartibga solinishi zarurligi to'g'risidagi birinchi asoslashga qadar (XVIII asr - XX asrning birinchi yarmi);

-kompaniyaning strategik menejmenti konsepsiyasi doirasida raqobatbardoshlikni boshqarish bosqichi;

-"eng yangi" bosqich-raqobat kurashida innovatsiyalardan foydalanishning murakkabroq modellaridan foydalanish (boshqalardan maksimal "farq qilish"), raqobatni tizimlarning boshqa darajasiga chiqishi (raqobatchilar bilan kooperatsiya, klasterlarning tashkil bo'lishi, davlatning "yumshoq" kuch siyosati).

4. Raqobatbardoshlikni o'zaro bog'liq bo'lgan raqobat ustunliklari tizimi sifatida qarash mumkin. Bu esa raqobatbardoshlikni raqobat ustunliklarini samarali boshqarish, deb tushunishga imkon yaratadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida raqobatbardoshlik uchta o'zaro dialektik bog'liq darajalardan tashkil topadi. Bular: mahsulot raqobatbardoshligi; korxonalar raqobatbardoshligi; davlat raqobatbardoshligi.

5. Raqobat ustunligi raqobatbardoshlikning omillaridan biri va eng muhimi bo'lib, bir nechta xususiyatlarga ega. Raqobat ustunligi raqobat jarayonida qo'llanilsagina ahamiyatli, raqobat muhitidagi mavjud sharoitlar ta'siriga bog'liq holda nisbiy hamda dinamik xarakterga ega, ular raqobatchilar tomonidan juda qiyinchilik bilan nusxalanadi.

6. Raqobat muhitida raqobatchilar mavjud sharoitga moslashishga majbur bo'lishadi. Raqobat muhitida yetakchilik mavqeiga ega bo'lish maqsadida

raqobatchilar o'zaro qarama-qarshi munosabatda bo'lib, nou-xaular, innovatsiyalar, yangi texnologiyalarni kiritish orqali kurashadilar. Bunda yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolishi, mag'lub bo'lishi yoki eskining yangi bilan sintezi paydo bo'ladi va bu o'z navbatida taraqqiyotga olib keladi. O'z navbatida, raqobat muhitidagi institutsional, huquqiy, moliyaviy, iqtisodiy shart-sharoitlar raqobatchilarga ta'sir o'tkazadi.

7. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonida optimal raqobatbardosh strategiyani qo'llash katta ahamiyat kasb etadi. Bunday strategiya raqobatbardoshlikni yana bir omillaridan hisoblanadi. Strategiyalashning metodologiyasini yaratish hozirgi davrdagi muhim vazifalardan biridir. Strategiyalash ilmiy prognozlash va bashoratning ilg'or metodlariga tayanishi lozim.

8. Optimal raqobatbardosh strategiyani yaratish va uni amalda ro'yobga chiqarish ko'p jihatdan ichki va tashqi raqobat muhitidagi yetakchilikka bog'liq. Tashqi muhitdagi yetakchilik uzoq muddat ushbu mavqeni saqlab qolish uchun sa'y-harakatlarni o'z ichiga oladi. Bunda esa tashkilot, muassasa yetakchisining uzoq kelajakni ko'ra bilish, yo'naltirib turish, boshqarish, rejalashtirish kompetensiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

9. Zamonaviy O'zbekiston global raqobat sharoitida dunyo davlatlari orasida mos mavqeni egallashida qator omillarning ahamiyati katta. Ulardan biri oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish hisoblanadi.

10. Kambag'allikni qisqartirish orqali aholining turmush farovonligining oshishi o'z navbatida O'zbekistonning qator xalqaro indekslarda yuqori o'rinlarni egallashiga olib keladi. Buning uchun kambag'allikni qisqartirish bo'yicha yuqori natijalarga erishgan davlatlar tajribasini o'rgangan holda ko'p mezonli kambag'allikni o'lchashga asoslangan milliy modelni yaratish lozim.

11. Zamonaviy O'zbekistonda raqobat muhitini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar dinamik ravishda rivojlanib bormoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda innovatsiyalarga katta e'tibor berilmoqda. Bu jarayonda tadbirkorlik ekotizimlarini rivojlantirish, korporativ ijtimoiy ma'suliyat va ESG tamoyillarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar kelib chiqadi:

1. Iqtisodchi mutaxassislar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlarida Falsafa fanining dasturlariga "Raqobat falsafasi" mavzusini kiritish lozim. Axborot asrida barcha sohalarda, jumladan, iqtisodiyot sohasida ham davlatlar o'rtasida raqobat kuchayib, rivojlanayotgan mamlakatlar o'z raqobatbardoshligini oshirish, uzoq muddatli raqobat ustunliklarini shakllantirishga ehtiyoj sezmoqda. Raqobat muhiti va raqobatbardoshlik dialektikasi to'g'risidagi bilimlar iqtisodiyot sohasi mutaxassislari uchun juda muhim. Chunki ular kelajakda O'zbekistonning raqobatbardoshligi yo'lida faoliyat olib boradilar.

2. “Tadbirkorlik ekotizimlari” tushunchasini milliy qonunchilikka kiritish zarur. Tadbirkorlik ekotizimlari qatoriga, jumladan qishloq xo’jaligidagi klasterlar kiradi. O’zbekistonda klasterlar tashkil etilishi natijasida samaradorlikka erishilmoqda. Ularning huquqiy maqomini aniqlashtirish lozim.

3. Kambag’allikni qisqartirishning ko’p mezonli ko’rsatkichlarga asoslangan modelini yaratish kerak. O’zbekistonda kambag’allikni qisqartirishning Xitoy tajribasi atroflicha o’rganilmoqda. Xorij tajribasi hamda mahalliy o’ziga xoslikni uyg’unlashtirgan holda milliy modelni shakllantirish kerak. Buning uchun keng miqyosda sotsiologik tadqiqotlar o’tkazish lozim.

4. Mahalla fuqarolar yig’inlari qoshida psixolog (bir necha mahallaga bitta) shtatini joriy qilish lozim. Ushbu psixologlar kambag’al oilalarda o’sib kelayotgan o’spirinlar bilan ularning o’z hayotiga va jamiyatga nisbatan bo’lgan munosabatini shakllantirish yo’nalishida faoliyat olib borishlari zarur.

5. Korporativ ijtimoiy ma’suliyat va ESG (quyidagi tamoyillarga asoslangan tadbirkorlik faoliyatining barqaror rivojlanishi:

1) atrof-muhitga nisbatan ma’suliyatli munosabat (ingl. E-environment), ekologiya, 2) yuqori ijtimoiy ma’suliyat (ingl. S-social), 3) korporativ boshqaruvning yuqori sifati (ingl. G-governance) tamoyillarini barcha tashkilot, muassasa, ishlab chiqarish korxonalarida joriy etish kerak. Investoirlarning asosiy ko’pchiligi sarmoya kiritish haqida qaror chiqarishda korxonaning ekologiya va jamiyatga ta’sirini hisobga olishadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.F.01.05.  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**  

---

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**АЛИМАТОВА НАРГИС АБДУХАЛИЛОВНА**

**ДИАЛЕКТИКА КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЫ И  
КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ В СОЦИАЛЬНО-  
ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКИСТАНА**

**09.00.04 - Социальная философия**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
**диссертации на соискание ученой степени**  
**доктора философских наук (DSc)**

**Ташкент-2025**

**Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2022.2.DSc/Fal127.**

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (ik-falsafa.nuu.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный консультант:**

**Мухтаров Азамат**

доктор философских наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Раматов Джуманияз Султанович**

доктор философских наук, профессор

**Юлдашева Фарид**

доктор философских наук, профессор

**Чориев Санжар Анварович**

доктор философских наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Самаркандский институт экономики и сервиса**

Защита диссертации состоится “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025 года в \_\_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc. 30.12.2019.F.01.05.при Национальном университете Узбекистана.(Адрес: 100174, город Тошкент, улица Университетская, дом 4. Тел.: (99871) 227-12-24; факс (99871) 246-53-21, (99871) 246-02-24; e-mail: [nauka@nuu.uz](mailto:nauka@nuu.uz) в здании факультета социальных наук Национального Университета Узбекистана, 5-й этаж, 511-я аудитория).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирован за №\_\_\_\_\_) Адрес: 100174, город Тошкент, улица Университетская, дом 4. Тел.: (99871)246-02-24; факс: (99871) 246-02-24.

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года. (реестр протокола рассылки № \_\_\_ от «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года).

**И.С.Саифназаров**

председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философских наук, профессор

**Г.Шадиметова**

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD), доцент

**Ў.Ғ. Тилавов**

председатель Научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор философских наук(DSc), доцент

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Во всем мире издревле люди находились в отношениях взаимопомощи и сотрудничества. Но им приходилось бороться, когда они преследовали разные цели для достижения своих интересов. В современном мире такая ситуация прослеживается и в отношениях между государствами. В первой четверти XXI века под влиянием глобализации стираются национальные границы между государствами и они становятся участниками единой конкурентной среды. Страны, чтобы обладать своим местом в этой среде, должны развивать свою конкурентоспособность. Для развития конкурентоспособности, имеет большое значение создание конкурентной среды в социально-экономической сфере. А также, нужно сформировать конкурентное преимущество, которое трудно скопировать. Исследование с социально-философской точки зрения закономерностей диалектической взаимосвязи и развития конкурентной среды и конкурентоспособности поможет определить механизмы процесса конкуренции. А когнитивно ценностное значение конкуренции для общества опирается на философские основы.

